# IX. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)

2022-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi **49,7 %** ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida **2227** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **80,8** foizni tashkil qildi.




Eng ko‘p yangidan tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida 685 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 558 ta, sanoat tarmog‘ida 455 ta, qurilish tarmog‘ida 123 ta, tashish va saqlashda 80 ta, yashash va ovqatlanishda 73 ta tashkil etilgan.

**Korxonalar soni kesimida**



2022 yilning yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulotning 49,7 foizi (2021 yil yanvar-iyunida 49,7 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi 1634,3 mlrd. so'mni (18,4 foiz faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3348 tani tashkil etdi);

3633,3 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 97,5 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3515 tani tashkil etdi;



1441,8 mlrd.so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 34,5 foizi) 2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 109,5 foizni tashkil etdi;

- 2344,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 92,1foizi) (qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 2457 tani tashkil etdi);

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 1,7 foizga (respublika jami avtomobil' transporti yuk aylanmasining 90,0 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 4,1 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 96,7 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 937 tani tashkil etdi);

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 90,5 foizi yoki 4018,0 mlrd. so'm, xizmatlar umumiy hajmining mos ravishda 50,9 foizi yoki 2400,6 mlrd. so'mni, tashkil qildi. faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 6825 ta

37,8 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 20,1 foizi) 58,1 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 50,6 foizi) (hisobot davrida 133 ta kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan eksport hamda 247 tasi tomonidan import operatsiyalari amalga oshirildi).

**2022 yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi**




| | *Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so‘m* | *kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida* |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 3633,3 | 97,5 |
| Sanoat | 1634,3 | 18,4 |
| Qurilish | 2344,9 | 92,1 |
| Chakana savdo | 4018,0 | 90,5 |
| Yuk tashish, *mln tn.* | 14,7 | 92,6 |
| Yo‘lovchi tashish, *mln. kishi* | 61,4 | 94,1 |
| Eksport, *mln. AQSh doll.* | 37,8 | 20,1 |
| Import, *mln. AQSh doll.* | 58,1 | 50,6 |

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o‘zgarishi**
*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*




2022 yil yanvar-iyun oylarida 22584 ta kichik korxona va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo‘jaliklaridan tashqari) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan (20732 ta) 108,9 foizni tashkil etdi.

| | |
|---|---|
| Savdo | 32,0 % |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 16,7 % |
| Sanoat | 15,7 % |
| Qurilish | 11,3 % |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 6,7 % |
| Tashish va saqlash | 4,3 % |
| Axborot va aloqa | 1,6 % |

Eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdo tarmog‘ida barcha ro‘yxatdan o‘tganlarning savdo (32,0 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (16,7 %), sanoat (15,7 %), qurilish (11,3 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (6,7 %) hamda tashish va saqlash (4,3 %) va axborot va aloqa (1,6 %) iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan.

**2022 yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**

*(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)*




**2022 yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi**

Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Nukus shahri (325,6 mlrd. so'm), Beruniy (281,8 mlrd. so'm), Amudaryo (127,3 mlrd. so'm), To'rtko'l (114,3 mlrd. so'm), Qorao'zak (112,0 mlrd. so'm), Ellikqal'a (87,9 mlrd. so'm), Shumanay (87,9 mlrd. so'm); tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Bo'zatov tumanida (11,0 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




**2022 yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari**



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Nukus shahri (1029,1 mlrd. so'm), To'rtko'l (435,1 mlrd. so'm) va Xo'jayli (346,7 mlrd. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

**2022 yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmat ko'rsatish hajmi va o'sish sur'atlari**




2022 yilning yanvar-iyun oylarida respublika yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 49,7 foizni tashkil qilib, 2021 yilning mos davriga (49,7) nisbatan foizni tashkil qildi.

Sanoat ishlab chiqarish sohasining yuqori ulushi Shumanay va Bo'zatov tumanlari (jami ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi (100,0 %), Beruniy ulushi (94,6 %), Mo'ynoq ulushi (81,5 %), tumanlariga va eng past ulushi Nukus shahri (6,6 %) to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasida tuman bo'yicha jami xizmat ko'rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Taxtako'pir (jami xizmatlar hajmiga nisbatan ulushi (85,7%), Qorao'zak (83,4 %), Mo'ynoq (82,8 %), Nukus (81,6 %), Kegeyli (80,3 %), Shumanay (80,0 %), Qonliko'l (79,9 %), Xo'jayli (77,3 %), Ellikqal'a (77,1 %), Amudaryo (75,7 %), tumanlariga to'g'ri keldi.

**2022 yilning II chorak uchun iqtisodiy vaziyatni baholash,**
*foiz hisobida*




Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturiga asosan 2022 yil II chorak yakunlariga ko'ra iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangidan tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, bo'yicha respondentlarning 41,2 foizi iqtisodiy vaziyatini qulay, 47,0 foizi qoniqarli va 11,8 foizi qoniqarsiz deb baholashi kuzatildi.

**Iqtisodiy vaziyatdagi o‘zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi**




Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholanayotganligini hulosa qilish mumkin.